
Viloyatimizda “Keksalar haftaligi” doirasida turli tadbirlar, uchrashuvlar tashkil etilmoqda

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Farg’ona viloyat bo’limi hamda Farg’ona politexnika instituti hamkorligida “Nuroniylar FarPI oilasida mehmonda” deb nomlangan uchrashuv o’tkazildi.

Bir guruh mehnat faxriylari talabalar turar joyida yaratilgan sharoitlar, zamonaviy ochiq kutubxona, Yoshlar markazi, institutda tashkil etilgan "Qir guli" talabalar teatr studiyasi faoliyati bilan tanishdilar. Ular talabalar uchun institutda yaratilgan sharoitlarni ko’rib, havasi yanada ortdi. Unutilmas yoshlikning zavqli onlarini yodga olish asnosida, yoshlar bilan birgalikda go’zal she’rlar o’qishib, talabalik qo’shiqlarini xirgoyi qildilar, o’zlarining hayotiy tajribalari bilan o’rtoqlashdilar.

Uchrashuv yakunida faxriylar kechki ovqatni institut oshxonasida talabalar bilan birga tanovvul qildilar va minnatdorchilik o’rnida yoshlarga badiiy adabiyotlar sovg’a qildilar.

2022-10-10 01:41:53